

TALABALARNING MUSTAQIL ISHLASH SHARTLARINI O‘RGANISH

Qurbonova Gulruksor Murodjon qizi

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari

Universiteti Farg‘ona filiali 1-bosqich magistranti

E-mail: murodk943@gmail.com

Qurbonova Gulxumor Murodjon qizi

Qo‘qon universiteti 1-bosqich talabasi

E-mail: gmkurbonova0406@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarning mustaqil ishi muammosi tadqiq etiladi va turli universitet talabalari uchun mustaqil ish sharoitlarini o‘rganish natijalari tavsiflangan.

Kalit so‘zlar: mustaqil ish, faoliyat, tashkil etish, sharoit, o‘z-o‘zini boshqarish, samaradorlik, faollik, motivatsiya.

STUDYING THE CONDITIONS OF STUDENTS’ INDEPENDENT WORK

Abstract: In this article, the problem of the independent work of students is considered and the results of the research of the conditions of the independent work of students from different high schools is described.

Keywords: independent work, activity, the organization, conditions, self-checking, efficiency, activity, motivation.

Hozirgi kunda zamonaviy dunyo o‘z taraqqiyotining sanoatdan keyingi yoki axborot bosqichiga o‘tish arafasida turibdi. Ishlab chiqarish jarayoni yanada texnologik, zamonaviy va malakali mutaxassislariga talabchan bo‘lib bormoqda.

Bitiruvchilar, eng avvalo, kasbiy vazifalarni bajarish uchun zaruriy bo‘lgan ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari kerak. Axborot hajmi juda qisqa vaqt davomida yangilanmoqda. Turli manbalardan olingan ma’lumotlarga ko‘ra, har bir yarim-ikki yilda barcha ilmiy ma’lumotlar hajmin ikki barobarga oshmoqda. Shu sababdan, professional ta’limning butun tizimini tubdan qayta qurish kerakligi ayon bo‘lmoqda. Ta’lim mazmuni ham qayta ko‘rib chiqilishi kerak. Universitet bitiruvchilari 10 yil oldin olgan ta’lim, hozirgi paytda ular topgan realliklarga to‘g‘ri kelmaydi. Texnologik inqilob ta’lim uchun turli qiyinchiliklar tug‘diradi. Ustuvor vazifalardan biri professional sohada zarur bo‘lgan vositalar bilan jihozlangan malakali, raqobatbardosh mutaxassisni shakllantirishdir. Bunga qo‘shimcha tarzda, ko‘plab yangi sanoat va shunga ko‘ra ilgari mavjud bo‘lmagan yangi kasblar va mutaxassisliklar paydo bo‘ladi. Oliy professional ta’lim tizimini qayta ko‘rib chiqish uchun turtki bo‘lib qolgan yana bir omil – global integratsiya jarayonidir. Globallashuv sharoitida kasblarni birlashtirishga moyillik shakllanadi. Tajriba, bilim va mutaxassislar almashinuvi rivojlanish mezonlaridan biriga aylanib bormoqda [1-2]. Insoniyat tomonidan bilimlarning to‘planishi dinamikasini hisobga olsak, butun umr davomidagi ta’lim tushunchasi dolzarb ahamiyat kasb etyapti.

Universitetda talabalarning mustaqil ishlarining rolini kuchaytirmasdan turib, ta’lim-tarbiya berish tamoyillarini hayotga tatbiq etish imkonsizdir. Bu davrda mustaqillik shaxsiyat sifatida shakllanib, ta’lim va kasbiy vazifalarni hal etish uchun harakat yo‘li o‘zlashtirib olingan.

Talabani mustaqil ishi – davlat tomonidan taqdim etilgan sinf darslaridan tashqari bo‘lgan ish turi hisoblanadi. Umuman olganda bu – butun o‘quv davri uchun beriladigan mustaqil ish hajmi taxminan auditoriya ishi hajmiga teng. Bunga misol sifatida kredit-modul tizimini keltirish mumkin. Bunda talabaga o‘tiladigan auditoriya soatidan tashqari, shunga teng yoki undan 2 barobar ko‘p mustaqil ta’lim soati ajratiladi.

"Mustaqil ish" tushunchasi olimlar L.G.Vyatkin, M.G.Garunov, N.I.Pidkasistiy tomonidan o‘qitishni tashkil etish shakli, usuli, vositasi va o‘quv faoliyati turi sifatida qaraladi.

L.G.Vyatkin tomonidan berilgan ta’rifga ko‘ra, “Mustaqil ish shunday bir faoliyat turi-ki, o‘qituvchining bevosita ko‘magi kamaygan sharoitda talaba shaxsiyatining o‘ziga xos xususiyati sifatida bilim mustaqilligini shakllantirish uchun bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarini ongli va doimiy ravishda o‘zlashtirishga yordam beradigan o‘quv topshiriqlari bajariladi” [3].

Mustaqil ishga 2 xil yondashish mumkin. Bir tomondan, faollik, mustaqillik, kognitiv qiziqishni rag‘batlantiradigan faoliyat turi va bundan tashqari, o‘z-o‘zini tarbiyalashning asosi, keyingi malaka oshirishga turtki sifatida qaralsa, boshqa tomondan, talabalarning mustaqil faoliyatini boshqarishni ta’minlaydigan tadbirlar yoki pedagogik sharoitlar tizimi sifatida qaraladi.

P.I.Pidkasistiy "yuqori maktabda tayyorlanadigan mustaqil ishlar, o‘quv davri mobaynida mustaqil faoliyatni tashkil etish va boshqarishning o‘ziga xos pedagogik vositasi" deb hisoblaydi [5]. Bir tomondan, P. I. Pidkasistiyning fikriga ko‘ra, mustaqil ish bu o‘quv topshirig‘i, ya’ni o‘qituvchi yoki dasturlashtirilgan qo‘llanma tomonidan taklif qilingan talaba faoliyatining obyekti, boshqa tomondan, tegishli o‘quv topshirig‘ini bajarish uchun faoliyatning ma’lum bir usulining namoyon bo‘lish shaklidir. Bu insoniyatning o‘ziga mutlaqo yangi, ilgari noma’lum bo‘lgan bilimlarni olish yoki mavjud bilimlarni tartibga solish, chuqurlashtirish usuli.

M.G.Garunov va P.I.Pidkasistiyning fikriga ko‘ra, mustaqil ishi quyidagi xususiyatlarga ega:

- u bilimsizlikdan bilimgacha bo‘lgan harakatning har bir bosqichida umumlashtiruvchi kognitiv muammolarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikmalarning hajmi va darajasini shakllantiradi;

- talabada o‘z bilimlarini muntazam ravishda to‘ldirish va ilmiy oqim bo‘ylab harakat qilish qobiliyatini rivojlantirish uchun psixologik munosabatni rivojlantiradi;

- bu o‘quv va kasbiy rivojlanish jarayonida mustaqil bilim va ilmiy-ishlab chiqarish faoliyatini umumlashtiruvchi pedagogik boshqarish vositasidir [4,5].

Mustaqil o‘quv mashg‘ulotlarini to‘g‘ri tashkil etish, ularning tizimliliigi, ish vaqtini maqsadga muvofiq rejalashtirish talabalarga o‘quv jarayonida olingan bilimlarni o‘zlashtirish, o‘rganish va tizimlashtirish bo‘yicha ko‘nikmalarni shakllantirishga, butun mehnat faoliyati davomida kasbiy darajani oshirish ko‘nikmalarini shakllantirishga imkon beradi.

Talabalar tomonidan tayyorlanadigan mustaqil ishlar samaradorligi, asosan, o‘zini o‘zi nazorat qilish darajasi bilan belgilanadi. Talabalarning mehnat tizimidagi o‘zini o‘zi boshqarishning asosiy obykti quyidagilar bo‘lishi mumkin:

- mustaqil ishlarni rejalashtirish va individual rejani bajarish;
- mavzuni tematik rejaga, o‘quv dasturiga muvofiq o‘rganish;
- ilmiy-amaliy konferensiyalarda qatnashish;
- ijodiy ishlarni loyihalash va bajarish;
- nazorat, test, kurs va diplom ishlarini bajarish.

Tadqiqotchilar tomonidan Rossiya turli universitetlarining 867 nafar talabalarini qamrab olgan so‘rov o‘tkazilganda quyidagilar aniqlangan:

1. 93 foiz talabalar kerakli adabiyotlarni o‘zlari mustaqil izlanib topadilar (7% talabalar kutubxonachi-maslahatchilarga murojaat qilishadi; 87% talabalar Internet resurslaridan foydalanishadi);

2. 1 foydalanuvchi kutubxonaga o‘rtacha 26,6 marta tashrif buyuradi va 70,5 turli adabiyotlar nusxalarini olishgan.

3. 546 o‘quvchidan atigi 60 nafari o‘z-o‘zini dunyo qarashini rivojlantirish uchun, qolganlari faqat o‘qish yuzasidan kutubxonaga borishdi.

Kutubxonaga tashrif buyurish chastotasi: 14 % - yiliga 5 martadan kam; 17% - yiliga 5 – 10 marta; 68 % - yiliga 10 martadan ko‘proq.

Ommabop pullik xizmatlar: 2% - tungi obuna; 1% - nusxalash; 14% bibliografik qidiruv; 68% bizning kutubxonalarda kerakli adabiyotlar yo‘qligini ta’kidlashgan.

Ular mustaqil ishni tashkil etishning turli shakllari talabalar tomonidan qanday baholanishini aniqladilar: talabalarning 55 foizi mustaqil ishning eng foydali shakli – ilmiy maqolalar, 20 foizi - ijodiy vazifalar, 10 foizi tezislar deb hisoblashadi. Mustaqil ishning eng murakkab shakllari sifatida: 35% - tezislar, 20% ijodiy vazifalar, 18% - ilmiy adabiyotlarni o‘rganish deb topildi.

Mustaqil ish tayyorlamaslikning eng keng tarqalgan sabablari: dangasalik, vazifaning tushunarsizligi, qiziqishning yetishmasligi, manbalarning yetishmasligi. Shunday qilib, o‘tkazilgan tadqiqotga ko‘ra, xulosalar chiqarish mumkin:

- Mustaqil ishni bajarmaslik sabablarining subyektivligi muammolari;
- talabalar kutubxonalarga faqat o‘zlarining qiziqishlari uchun emas, balki belgilangan mustaqil ishni bajarish uchun tashrif buyurishadi;
- kiber-plagiat holatlarining ko‘payishi.

XULOSA

Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishda asosiy narsa o‘quv davri davomida talabalarning yuqori faolligi, mustaqilligi va javobgarligi uchun sharoit yaratish hisoblanadi. Talabalar mustaqil ishlarni tayyorlash davomida faollik ko‘rsatishi faqat keyingi kasbiy faoliyat uchun jiddiy va barqaror motivatsiya mavjud bo‘lganda mavjud bo‘lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. K.Smironova System Overview Of The Purpose And Content Of Information Technology Training Of Future Teachers Of Technologies To The Development And Use Of E-Learning Resources. Xalqaro Ilmiy-amaliy konferensiya, 3(5), 6-12-b, 2017.
2. K.Smironova, M.Musorina The formation of technical culture of skippers like experience in the process of qualification. Fan va ta’limning zamonaviy metodologiyasi, 6(10), 17-20-b, 2016.
3. L.G.Vyatkin Pedagogika oliygohlari talabalarining bilim mustaqilligi darajasi [matn]. L.G.Vyatkin, A.B.Olneva, G.D.Turchin Mintaqaviy pedagogikaning aktual savollari: Saratov, ilmiy to‘plam, 2002-yil, 35-38-b.
4. M.G.Garunov Talabalarning mustaqil ishi. M.:Bilim, 1998-yil.
5. P.I.Pidkasistiy Talabalarning mustaqil ishlarining mohiyati va uni tasniflashning psixologik va didaktik asoslari. P.I.Pidkasisty Talabalarning mustaqil ishlarini faallashtirish muammolari. Perm, 2000-yil.